



**NUTQIY ETIKETNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI:
O'ZBEK TILI MISOLIDA**

Raxmonqulova Shaxzoda Baxrom qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti – talabasi

Dadamirzayeva Mohidil G'ulomjon qizi – ilmiy rahbar

Annotatsiya: Insonlar o'rtasidagi muloqotda o'zaro hurmat, ehtirom, samimiyat va odob me'yorlari kabi til vositalarini ifodalovchi majmuaga - nutqiy etiket deyiladi. Har bir xalqning nutqiy etiketi uning an'anaviy hayot tarzi, milliy qadriyati va ijtimoiy tuzilmasi bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu maqola o'zbek tili nutqiy etiketi, qadriyatlari, urf-odatlar va an'analar bilan bog'liqligi, uning jamiyat va madaniyatdagi o'rni hamda globallashuv davrida milliy nutqiy etiketning ahamiyati haqida tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: nutqiy etiket, nutq madaniyati, g'loballashuv, milliy qadriyat, etiketning mazmun va vazifalari.

Annotation: In communication between people, the set of linguistic means that express mutual respect, courtesy, sincerity, and manners is called speech etiquette. The speech etiquette of each nation is closely connected with its traditional way of life, national values, and social structure. This article analyzes the role of speech etiquette in the Uzbek language, its relationship with national values, customs, and traditions, as well as its importance in society and culture. It also examines the significance of national speech etiquette in the context of globalization.

Keywords: Speech etiquette, speech culture, globalization, national values, etiquette.

Kirish: Til - millatning ma'naviy qiyofasini, tafakkur darajasini va madaniy dunyoqarashini aks ettiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Har bir millatning nutqiy madaniyati uning tarixiy rivoji, urf-odatlarini bilan chambarchas bog'liq. Nutqiy etiket esa jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro hurmat, ehtirom, samimiylik va



axloqiy me'yorlarning ifodalanishida muhim ro'l o'ynaydi. O'zbek xalqining nutqiy etiket tizimi o'ziga xos milliy xususiyatlarga ega bo'lib, u asrlar davomida shakllangan hurmat, ehtirom, duo va tilaklarga boy muloqot an'analari orqali namoyon bo'ladi. Biroq zamonaviy kommunikatsiya, shakllarining kengayishi xorijiy tillarning ta'siri vayoshlar nutqidagi yangi lingvistik tendensiyalar uchrab an'anaviy tizimda muayyan o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Bugungi globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli muloqot muhitining kengayishi yoshlar nutqida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va virtual platformalar orqali shakllanayotgan yangi muloqot madaniyati qisqalik, norasmiylik va ba'zan esa milliy nutqiy etiket me'yorlaridan chekinish holatlarini yuzaga keltirmoqda. Bu esa milliy nutqiy madaniyatni saqlash va rivojlantirish masalasini dolzarb ilmiy muammo sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda.

Asosiy qism: Nutqiy etiket – bu muayyan jamiyatda qabul qilingan muloqot qoidalari, hurmat va ehtirom ifodalovchi nutq shakllarining tizimidir. U salomlashuv, murojaat, uzr so'rash, minnatdorchilik bildirish, duo qilish kabi nutqiy birliklar orqali namoyon bo'ladi. Nutqiy etiket insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim madaniy mexanizm bo'lib, jamiyatda o'zaro tushunish va muvozanatni ta'minlaydi. Madaniyatlararo nutqiy kompetensiya atamasini ishlatganimizda madaniyatlar, ya'ni ikki va undan ortiq xalqlar madaniyati o'rtasidagi nutqiy etiketlar tushuniladi. Bu o'rinda turli madaniyatga ega bo'lgan jamiyat a'zolarining o'zaro farkli nutqiy odatlari uyg'unlashuvi deyish mumkin. Turli ijtimoiy muhit vakillari o'zaro uchrashganda nima yuz berishini oldindan aniq aytib bo'lmaydi, aksincha, ularning nutqiy faoliyatida har ikkala madaniyat shaklidan farqlanuvchi oraliq nutqiy etiket paydo bo'ladi. Bunda pragmatika uchun nihoyatda qiziq faktlarni uchratish mumkin. O'zbek tilida nutqiy etiket shakllari asosan murojaat, salomlashish, ta'zim qilish, minnatdorchilik, uzr so'rash kabi ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi maxsus leksik birliklar (so'zlar, iboralar) va gap tuzilmalarini o'z ichiga oladi, ular sharq madaniyati va oilaviy qadriyatlar ta'sirida



shakllangan bo'lib, "siz"/ "sen" kabi murojaat formalari va xoslangan so'zlar (masalan, "aka", "opa", "aziz", "jonim") bilan ajralib turadi. Nutqiy etiketning kengaytirilgan shakllari asosan 5 tani tashkil etadi va ular quydagilardan iboratdir:

1. Xoslangan murojaatlar: "aka", "opa", "singil", "ukajon", "amaki", "tog'a", "xola", "buvi", "ota-ona" kabi qarindoshlik yoki yoshga bog'liq nomlar.

Hurmat formalari: "Siz"ning qo'llanilishi, "Marhamat", "Xush kelibsiz", "Tashrif buyuribsiz" kabi iboralar.

2. Samimiy murojaatlar: "Jonim", "Shirin", "Azizim" kabi mehrlil so'zlar.

Salomlashish va xayrlashish:

"Assalomu alaykum", "Valaykum assalom", "Xayr", "O'zingizdan bo'ling", "Yaxshi yuring" kabi rasmiy va norasmiy iboralar.

3. Minnatdorchilik va uzr so'rash:

"Rahmat", "Tashakkur", "Marhamat", "Uzr", "Kechirasiz", "Aybdorman" kabi ifodalar.

4. Tashakkur va iltijo:

"Iltimos", "Aytmasam bo'lmas", "Yordamingiz uchun minnatman" kabi gaplar.

5. Gap tuzilmalari (ekstralingvistik):

Nutqning ohangi, intonatsiyasi, pauzalar, so'zlarni alohida ajratib (ekspressiv) gapirish ham etiketning muhim qismidir. O'zbek nutqiy etiketi sharqona odob-axloq qoidalariga asoslanadi va muloqot jarayonida hurmat, mehr-shafqat va ijtimoiy o'rinni ko'rsatish muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va global muloqot muhiti yoshlar nutqida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va onlayn platformalar orqali tezkor, qisqa va norasmiy muloqot shakllari keng tarqalmoqda. Natijada - qisqartmalar (ok, bb, thx), aralash til (code-switching), sleng va inglizcha so'zlar (bro, cool, like), emojilar orqali hissiyot ifodalash kabi hodisalar nutqiy etiketning an'anaviy shakllarini siqib chiqarmoqda.



Ba'zi holatlarda yoshlar keksalarga ham norasmiy uslubda murojaat qilishi, salomlashuv va xayrlashuv shakllarining soddalashuvi kuzatilmoqda. Bu esa milliy nutqiy madaniyatda muayyan darajada uzilishlar yuzaga kelayotganidan dalolat beradi. Globallashuv sharoitida milliy nutqiy etiketni saqlash va uni zamonaviy talablarga mos holda rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda - ta'lim tizimida nutq madaniyatiga e'tibor kuchaytirish, ommaviy axborot vositalarida adabiy til me'yorlariga rioya qilish, yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, nutqiy etiket jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilovchi muhim madaniy hodisa bo'lib, u xalqning tarixiy tajribasi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek nutqiy etiketining asosida hurmat, ehtirom, samimiylik va duo-tilaklarga boy muloqot an'analari yotadi. Ushbu tizim asrlar davomida shakllangan bo'lsa-da, zamonaviy globallashuv jarayonlari, raqamli kommunikatsiya muhiti va xorijiy tillarning kuchayib borayotgan ta'siri natijasida yoshlar nutqida muayyan o'zgarishlar yuzaga kelmoqda.

Bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida milliy nutqiy etiket me'yorlarini saqlab qolish va uni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish muhim vazifaga aylanmoqda. Bu borada ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda adabiy til me'yorlariga rioya qilish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, nutqiy madaniyatni asrash – bu milliy o'zlikni, ma'naviy merosni va jamiyatda sog'lom muloqot muhitini asrash demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences E)ISSN: 2181-1784. 4(9), Oct., 2024. Research BIB / Index Copernicus www.oriens.uz

2. <https://cyberleninka.ru>

3. <https://www.oriens.uz>